

MUSIQA MAKTABLARINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA OVOZLAR KLASSIFIKATSIYASI VA UNING TURLARIGA BO'LGAN E'TIBOR VA KAMCHILIKLAR

Ruxshona Atkiyoyeva

*Farg'ona Davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti "Musiqqa ta'limi" yo'nalishi 2-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida pedagoglar tomonidan o'quvchilarga o'zlashtirilishi shart va majbur bo'lgan ovozlar turlari va klassifikatsiyasi haqida fikrlar keltiriladi. Qolaversa, bugungi kunda ayrim pedagoglar tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar atroflicha ko'rib chiqiladi va xulosalanadi.*

Kalit so'zlar: *klassifikatsiya, vokal, soprano, messo-soprano, kontralt, bass, markaziy bass, lirik dramatik bariton, lirik tenor, dramatik tenor, diskant*

Bolalar musiqa va san'at maktablarida ovozlarni turlarga bo'lish va ularni klassifikatsiya qilish boshlang'ich davrdanoq pedagog tomonidan tushuntirila boshlanadi. Ushbu mavzuga alohida e'tibor berishning ahamiyati shundan iboratki, bola yoshligidanoq erkak va ayol ovozlarni farqlay olishi kelajakda ovoz klassifikatsiyasi va eshitish qobilyatini rivojlanishiga olib keladi. Bu esa pedagogning eng katta yutug'idir. Ushbu jarayonda o'qituvchidan kuchli mehnat va ijodiy kompetentlik talab qilinadi. Pedagogda ijodiy yondashuvning yuqoriligi kelajakda o'quvchilarning samaradorlik koeffitsiyentining darajasini yuqori ko'rsatishda qo'l keladi. Chunonchi, musiqa maktablarida ovozlarni notog'ri ajratish, ovoz turlari haqida o'quvchilarga yetarlicha tushuncha bermaslik va notog'ri ovoz sozlash mashqlari ko'zga tashlanayotgandek.

Dastavval ovoz klassifikatsiyasi tushunchasini yorqin ifodalash zarur. Ovoz bevosita xonandalik tushunchasi bilan uyg'undir. Xonandalik ovozini belgilovchi sifatlar - tembr go'zalligi va tovushni uzoq tutib tura olishlikdir. Opera - konsert zallarida ovozni yaxshi eshitilishi va "parvoz" etishini talab qiladi. Ovoz tarangi, dumaloqligi va yumshoqligi spektrining pastki qismi obertonlari kuchlanishiga bog'liq. Xonandalik ovozining muhim sifati bu uning kuchidir. Opera kuylash kuchli va katta zalni ovoz bilan to'ldirish qobilyatiga bog'liq. Ovoz tabiatan registrlarga ega. Registr deb - tovushlarning tembri bo'yicha bir xillik qatori tushuniladi. U yagona fiziologik mexanizm bilan hosil qilinadi. Erkaklar ovozida diapazonning pastki qismida, ko'krak va yuqori qismida falset registri farqlanadi. Ko'krak registri tarangligi bilan ajralib turadi.

Ayollar ovozida ko'krak registri, bosh va ko'krak tarangi birlashgan markaziy va diapazonning yuqori qismida bosh registri (yorqin, ochiq jaranglaydi) farqlanadi. Professional xonandalik ovozi ikkita oktavalik diapazonga ega bo'lishi va

diapazonlik butun davomida tekis taranglashishi lozim. Ovozlar tembr va balandligiga ko'ra klassifikatsiyalanadi.

Ovozlarning asosan oltita turi farqlanadi:

Ayollar ovozi:

- soprano
- messo-soprano
- kontr-alt

Erkaklar ovozi:

- tenor
- bariton
- bass

Bolalar ovozi:

- Diskant (ko'proq o'g'il bolalar ovozigacha xos).

Ayollar ovozlari quyidagicha klassifikatsiyalanadi: eng baland ayollar ovozi (diopozonik, cheksiz kumush yuqori tembrli nafis ovoz, yengillik, eng murakkab ruladalar, keng sakrashlar, nozik melizmlar va hayratomuz bravur paasonxoe imkonini beradi. Opera partiyalari: tun malikasi (sehrli fleyta), qo'g'irchoq (Gofman ertaklari), qor qiz. Lirik soprano - (diapazon birinchi oktava do uchinchi oktava do, re). Kontilen yumshoq va jaranglovchi ovoz.

Lirik dramatik soprano va dramatik soprano kontralt ovozigacha nisbatan yumshoq va jarangdordir. Ular orasidan kamdan-kam uchrovchi ovozlar bu - kontralt, koloratura messo soprano, va yuqori sopranolardir.¹

Savol tug'ilishi mumkin, "Nega ular kamyob?". Buning sababi shuki, agarda pedagog bolani musiqa maktabidan boshlab ovozini to'g'ri yo'naltirishga (postanovkasiga) o'rgatsa, bolada o'zi bilmagan yoki payqalmagan ovoz klassifikatsiya turi namoyon bo'ladi. Ovozni to'g'ri yo'naltirish orqali pedagog o'quvchiga ovoz imkoniyatlarini yanada keng targ'ib qilishga o'rgatadi.

Erkaklar ovozi bilan ayollar ovozining bir nechta inqiroz davrlari mavjud. Bunga misol qilib o'g'il bolalarda balog'at yoshiga yetishda uchraydigan "mutatsiya" jarayonini olish mumkin. Mutatsiya jarayoni o'g'il bolalarda 13-15 yoshda namoyon bo'ladi. Lekin, statistika ma'lumotlariga ko'ra, bugunga kelib ushbu davr ancha yoshargan, ya'ni 10-14 yoshni o'z ichiga olmoqda. Buning sababi ekologik muhit va bola organizmidagi jadallashish jarayonidir. Ushbu "mutatsiya" jarayoni bolalarda diapazon va registrni o'zgarishiga, bola ovozida shira (xrip) paydo bo'lishiga, qattiq va dag'al bo'lishiga olib keladi. Agarda pedagog ushbu jarayonni payqamay qolsa, yoki ko'zdan qochirsa, kelajakda bola uchun bir nechta ziyonli oqibatlarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun tabiat qonunining ushbu jarayoni haqida yoshlikdan boshlab yetarlicha tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. Mutatsiya jarayoni qizlarda kamdan-kam holatlarda uchraydi. Va, bu

¹ Qahhorov Navjat Bavidunovich. "Vokal asoslari" kitobi. 5-6 betlar.

davr ularda deyarli hech qanday sezilishlarsiz, yengil o'tiladi. Shu sababdan ayollar tug'ma ovoz qobilyatiga ega bo'lib umrining to so'ngiga qadar 1 dona ovoz turi bilan yashay olishi mumkin.

Erkaklarda eng ko'p uchraydigan ovoz klassifikatsiyasi turlaridan biri bu: tenor, lirik tenor, dramatik tenor va lirik baritondir. Eng kamyoblaridan esa: bass, pastki bariton, dramatik bariton va markaziy bassdir. Yuqorida aytib o'tilganidek bunday ovozlarni ham bola yoshligidan boshlab to'g'ri yo'naltirib, tarbiyalab borilsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki har qanday musiqa rahbari yoki pedagog musiqaning "qurol" bo'lgan "ovoz"ga jiddiy qarashi va elementar narsalarni doimo inobatga olishi lozim. Bugungi kunda shuning guvohi bo'lish mumkinki, ayrim bolalar musiqa va san'at maktablarida amaliy yondashuvga nisbatan nazariy yondashuv darsning deyarli 100% dan 80% ini egallaydi. Bu esa jiddiy muammodir. Ushbu kamchilik va bee'tiborliklarga qaramay, buning yechimini amalda qo'llash vaqti keldi. O'quvchilarning diqqatini oshuruvchi va ijobiylik koeffitsiyentini yuqori baholovchi musiqiy interfaol metodlardan foydalanish har bir pedagogning vazifasi va burchidir. Ovoz sozlash mashqlariga jiddiy qarash va bolalarga ovoz turlari va klassifikatsiyalari tog'risida nazariy va amaliy tushunchalarni yetkazib borish nafaqat bolalar iqtidorida, balki musiqa maktablarining reyting oshishida muhim o'rin egallaydi. Demak, barcha narsa musiqa o'qituvchisining qo'lida. Agarda yuqorida inobatga olingan ayrim kamchiliklar ustida pedagog ish olib borsa, kelajakda albatta malakali yosh kadrlar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhorov Navjat Bavdunovich. "Vokal asoslari" kitobi. 5-6-betlar.
2. S.Matyakubova "Maqom solfedjiosi" kitobi. Toshkent. 2013-y.
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.A'zamova "O'zbek musiqasi tarixi" o'quv qo'llanmasi. Toshkent. 2013-y.
4. Хожимаматов Азимжон. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI. VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.
5. Muyassarxon Achildiyeva. PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI. VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 254-266 bet.

6. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
7. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
8. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
9. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
10. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
11. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
12. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
13. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
14. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
15. Xojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
16. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРИНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
17. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
18. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

19. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(С4), 23-28.

20. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.

21. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

22. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.

23. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.

24. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).

25. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

26. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

27. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.